

XAYRIDDIN SULTON ASARLARIDA BOBUR OBRAZI TALQINI

Nozima Inoqova Bahodir qizi

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

inoqovanozima@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14604497>

Annotatsiya: Ushbu maqola yozuvchi Xayriddin Sulstonov asarlarida buyuk shoh, iste'dodli shoir va mahoratli siyosatchi Bobur Mirzo obrazining qay tariqa yoritilishi, uning hayot yo'llaridagi turli voqea va hodisalar, “Boburnoma” asaridagi ba'zi voqeliklarning yozuvchi asaridagi badiiy aksi haqida bo'lib, o'zbek adabiyoti vakillari hamda jahon adabiyotshunoslarining Bobur Mirzoga bildirgan fikrlarini ham o'z ichiga oladi. Maqolada Xayriddin Sulstoning “Boburiynoma” romani, “Saodat sohili”, “Yo'lbarsning tug'ilishi”, “Oy botgan pallada”, “Panoh”, “Nuqta” kabi qissalari va boshqa asarlari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Bobur, obraz, qamal, hiyonat, Hindiston, shoh va shoir, janr, sujet.

Annotaiion: This article examines the portrayal of Babur Mirzo, the great king, talented poet, and skilled politician, in the works of writer Khayriddin Sultanov. It explores various events and occurrences in Babur's life, as well as the literary reflection of certain realities from “Baburnama” in the writer's works. The article also includes opinions about Babur Mirzo expressed by representatives of Uzbek literature and world literary scholars. The analysis covers Xayriddin Sultanov's novel “Baburiynoma”, as well as his novellas such as “Saodat sohili” (Shore of Happiness), “Yo'lbarsning tug'ilishi” (Birth of the Tiger), “Oy botgan pallada” (When the Moon Sets), “Panoh” (Refuge), “Nuqta” (The Point), and other works.

Key words: Babur, character, siege, betrayal, India, king and poet, genre, plot.

Аннотация: Данная статья посвящена освещению образа великого царя, талантливого поэта и искусного политического деятеля Бабура Мирзо в произведениях писателя Хайрадинна Султанова, различным событиям и событиями в его жизни, художественному отражению некоторых реалий в творчестве Бобурнаме, а также мнениям представителей узбекской литературы и мировых писателей о Бобуре Мирзе. В статье анализируются романы Хайрулдина Султана «Бобурийнаме», «Берег Саодат», «Рождение тигра», «Место Луны», «Убежище», «Точка» и другие.

Ключевые слова: Бабур, образ, осада, предательство, Индия, царь и поэт.

Kirish: Mahoratli yozuvchi, tarjimon Xayriddin Sulston o'z ijodida tarixiy shaxslar va ularning faoliyatiga katta e'tibor qaratgan. Uning asarlarida o'zbek xalqining o'tmishi, qadriyatlar va milliy qahramonlarning obrazlari alohida o'rin tutadi. Adibning asarlarida uchraydigan tarixiy voqealar shu qadar mahorat bilan qalamga olinganki, bugungi o'qirman qalbiga muhim masalalarni yetkazib bera oladi, ularni asar qahramoni bilan birga yashashga, u bilan birga fikrlashga undaydi.

Xayriddin Sulston ijodining eng muhim qirralaridan biri Bobur obrazining yoritilishidir. Bobur– faqat davlat arbobi yoki shoir emas, balki, shaxsiyati, ma'naviyati va ijodi bilan ham ulkan ahamiyatga ega tarixiy shaxs hisoblanadi. Boburning hayoti va faoliyati nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotida ham keng

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

o'rganilgan. Ammo, Xayriddin Sulton Bobur timsoliga o'ziga xos bir yondashuv bilan qaraydi: u Boburni nafaqat iste'dodli shoir, adolatli shoh va mahoratli siyosatchi sifatida o'rganadi, balki chin inson sifatidagi ichki dunyosini, insoniy kechinmalarini va hayotiy tanlovlarini chuqur tahlil qiladi.

Yozuvchining ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning asarlarida Bobur obrazi qatnashgan asarlar anchayin ko'pligini va bu asarlar adib ijodida muhim o'rin tutishining guvohi bo'lamiz. Bunga sabab qilib adibning o'zi Boburning hayoti va ijodiga qiziqish paydo bo'lishi haqida bunday deydi: “O'n to'rt yoshlarimda ilk bor bu nuroniy siymoning tasviri chekilgan suvratni ko'rdim. Olis qishloq maktabi, qahraton qishning dilgir kunlari, adabiyot xonasi devoriga osilgan muhtasham portret va undan muloyim tabassum ila boqib turgan, shohona sallasiga ukpar jig'a qadalgan ulug'sifat insonning bori–borlig'i murg'ak tasavvurimga shu qadar teran o'rtnashdik, dars paytida ham, tanaffus chog'lari ham uning mardona chehrasidan ko'z uzolmas edim. Bu nurli qiyofa mujassam shijoat, mujassam iztirob bo'lib tuyular, suvrat ostidagi

“Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,

Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi,

O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim,

Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi”,– degan sodda, hazin misralar bir o'qishdayoq yod bo'lib ketgan, shu satrlarni ko'cha–ko'yda ham, dala–dashtda ham takrorlab yurar edim. Ularning ma'yus ma'nosi, shikasta ohangi dilimga qattiq ta'sir qilar, o'z–o'zidan yig'lagim, uzoq bir joylarga bosh olib ketgim kelar edi. Shu yo'sinda Bobur Mirzoning mardlik va muruvvatda, zakovat va matonatda tengsiz shaxsiyatiga maftun bo'lib qoldim. Men uni otamday, onamday, farzandimday yaxshi ko'rib qoldim” [Sultonov X. Boburiynoma. 1997, 5].

Asosiy qism: Adibning bu ulug' shaxsga bo'lgan ulkan qiziqishi uni Bobur haqida asar yozishga undadi va “Yo'lbarsning tug'ilishi”, “Oy botgan pallada”, “Yo'lbars izidan”, “Panoh”, “Tavba”, “Boburning tushlari”, “Saodat sohili”, “Nuqta” kabi bir–biriga ma'no izchilliklari bilan bog'langan asarlardan iborat “Boburiynoma” nomli romanini yozdi. Bu romanning ahamiyatli jihati shundaki, adibning faqatgina asarlari emas, balki, Bobur Mirzo haqidagi ilmiy izlanishlari, uning hayoti va faoliyati bo'yicha qilgan izlanishlari, safarlari ham o'z aksini topgan. Bu asar qiymatini yanada oshirgan. Xayriddin Sultonning o'zi bu asar haqida shunday deydi: “O'lmas “Boburnoma”ning ummondek teran mazmuni, sof, sodda, mardona tarovatiga cheksiz havas qilib, kitobga “Boburiynoma” deb nom berildi.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Albatta, ma'no-yu mundarija jihatidan ulug' ajdodimiz bitgan asar yaktodir, bu borada hazratga aslo yetib bo'lmas. Bizning umidimiz ulki, shoyad shaklan bo'lsa-da, faromush bitiklarimiz “Boburnoma” ni eslatib tursin” [Boburiynoma, 7].

Umrining yigirma yildan ortig'ini Bobur Mirzoning hayot yo'li va ijodini o'rganishga bag'ishlagan, uni o'zining otasi, onasi, farzandi kabi suygan Xayriddin Sultonning asarlariga nazar solar ekanmiz, haqiqatdan ham bu asarning “Boburnoma”ning o'zbek tilidagi asliyatiga o'xshaydi. Unda Boburning haqqoniy va jonli tasviri chiziladi. “Yo'lbarsning tug'ilishi” asarida Boburning dunyoga kelishi va unga ism qo'yish ham o'ziga xos tarzda, badiiy to'qimalar bilan, ishonarli qilib tasvirlangan.

“Ko'z tegmasun, bahodir o'g'lon tug'ilubdur, – deydi Yunusxon. – Ismi ne bo'ldi?

–Zahiriddin Muhammad, – deydi Umarshayx Mirzo.

–Qutlug' bo'lsin, ulug'larning ismi, – deydi Yunusxon kulimsirab. –Nasib etsa, insholloh, yo'lbarsday bahodir bo'lg'usidir. Inchunun, “Bobur – yo'lbars” deb chaqirsak ham bo'lur ekan.

Umarshayx Mirzo yalt etib qaynotasiga qaradi.

–Yo'lbars?

–Ha, o'g'lim. Nechun ajablanasiz?

–Tangrining ishlariga tahsin aytaman, xon ota. Kecha shikor chog'i ko'z o'ngimda bir yo'lbars tug'lmish erdi. Endi esa siz bundog' deb turibsiz. Vo ajab! Ollohning karomatiga lolman, xon ota.

–Demak, bilingki, farzandingizga ilohiy xosiyat doribdur, – dedi Yunusxon. – Ko'zdan–suqdan asrangiz.

– Bosh ustiga, xon ota. Yo'qsa ismini “Zahiriddin Bobur Muhammad” deb ataylik, – deydi Umarshayx Mirzo hayajonlanib.[Yo'lbarsning tug'ilishi,17].

Bu asarda Bobur obrazining tug'ilishi va unga ism berilishi voqealari yoritilgan bo'lsa, “Oy botgan pallada” asarida esa, Bobur Mirzoning ulg'ayib, davlat ishlariga kirishgan, yosh podshoh sifatidagi qiyofasi namoyon bo'ladi. Asarning “Oy botgan pallada” deb nomlanishi ham ayni Boburning hayotidagi yorug' kunlar o'rnini zulmat qoplayotgan, yurtini dushmanlar qo'lidan saqlab qololmagan, ishongan insonlari hiyonat ko'chasiga kirgan vaziyatlar aks etganligi uchundir. Bu asarda Bobur obrazi nihoyatda o'ychan, muammolar girdobida qilib tasvirlanadi.

E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, Xayriddin Sultonov o'zining “Boburiynoma” asarini Mirzo Boburning “Boburnoma” asari syujetiga monand qilib, badiiy to'qimalar va syujetlar bilan boyitadi.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

“Panoh” asarida yosh podshoh Boburning tanazzulga yuz tutgan davlat sohibdori, o‘z yurtidan quvg‘in bo‘lgan, shikasta ko‘ngilli, mahzun Boburni tasvirlaydi. Samarqandni qo‘ldan boy berib, yetmish-sakson chog‘lik askarlari bilan panoh istab Toshkentga borishi, u yerni makon tutib, kuch to‘plab Andijon va Samarqandni Shayboniyxondan qaytib olishiga ishonishi tarixiy faktlarning badiiy talqiniga aylantirilgan. Bu asarda Bobur obrazini sotqin amaldorlarning, hokimiyat talashadigan jigarlarning dastidan aziyat chekkan, panoh izlab sargardon bo‘lgan, o‘z davlatini mustahkam qilib tuzish maqsadidagi yosh sarkarda sifatida tasvirlagan.

“Bizga ham uyquliq baxtimizni uyg‘otib, munosib bir arkoni davlat tizmoq nasib bo‘larmikan? Yoki umrimiz shu yo‘sin sargardonlikda o‘tib ketarmikan?..” “Qosimbek, ko‘nglim sezayotir, Jahongir Mirzoga ham, Tanbalga ham inonib bo‘lmas. Bu nav sargardonlikdin ko‘ra Toshkandga- xon dodam qoshiga borganim ma'qul. Xon dodam ham, tag‘oyilarim ham ish ko‘rgan, purtajriba kishilar. Shoyad Toshkanddan bir najot etsa...” [Panoh, 53].

Ko‘rinib turibdiki, yosh boshidan taqdirning turli sinovlariga yo‘liqqan, ko‘plab ishongan kishilarining hiyonatiga uchragan Boburning turfa xil kechinmalari, holatlari jonli tasvir orqali o‘quvchini Bobur shaxsini chuqur idrok qilishga yordam beradi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Xayriddin Sultonning “Boburiynoma” asari “Boburnoma”ning mufassal tabdiliga o‘xshaydi. Xususan, adibning “Tavba” nomli badiasi “Panoh” qissasining mantiqiy davomi sifatida Boburning vatanini yovga boy berib qo‘ygandan so‘ng Hindistonni egallashi va unda ulkan imperiya shakllantirgandan keyingi voqealar aks ettirgan. Asarning “Tavba” deb nomlanishiga sabab esa, Bobur bir muddat ichkilikka berilib qolganligi, bu odatni tark qilolmay necha tashvishlar chekkanligi va nihoyat, bu qilmishiga tavba qilgan matonatli obraz sifatida tasvirlangan ekanligidir.

“Jahondagi ne-ne ulug‘ zotlarning aqlu hushini zabt etib, irodasini mahv qilgan chogir balosi Zahiriddin Muhammad Boburni ham o‘z domiga tortgan edi... Sohibi fazilat va sohibi hikmat bo‘lgan Bobur bir muddat may dengizida suzgani va qariyb g‘arq bo‘layozganini, bundan qandoq iztiroblar, ranju aziyatlar chekkanini rostguylik bilan yashirmay hikoya qiladi: “Tonglasi devon tarqagondin so‘ng sayrga otlanib, kemaga kirib araq ichildi... Namoz digargacha araq ichildi...”

“Boburnoma”ni mutolaa qilar ekansiz, umrining ma‘lum bir davrida Bobur ertayu kech sharobdan bosh ko‘tarmagan, ko‘tarolmaydigan bir kimsa bo‘lgandek taassurot qoladi. Nahotki, deysiz ko‘zlarimizga ishonmay, nahotki shunday bo‘lsa? Tasavvuringizdagi ulug‘vor, dini islom ahkomlarini mahkam tutgan, shijoatli

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

hukmdor siyimosini axtarib, yana sahifalarni varaqlashga tutinasiz. Lekin, taassufki... “Chorshanba kuni oyning o‘n yettisida Haydar Naqiyning bog‘ida Tengriberdi ba‘zi beklarg‘a va yigitlarga suhbat beradur edi, men ham ul suhbatqa borib ichtim. Kech namoz xuftan andin qo‘pub kelib, ulug‘ oq uyda ham ichildi...” [Tavba, 102-103]

O‘z-o‘zidan savol tug‘iladi: biz ulug‘lagan shoh va shoir nahot mayparast bo‘lsa, nahotki, o‘zining erkini sharob qo‘liga tutqazib qo‘ygan bo‘lsa? Xayriddin Sulton nima uchun o‘zining badiiy qahramonini bunday sifatlar bilan o‘quvchiga yetkazdi ekan? Shunday savollar xotirni chulg‘agan bir paytda asarning davomi javob sifatida yordamga keladi.

“Tabiiy bir savol tug‘iladi: nahotki, Boburdek zakiy, nozikta‘b bir zot shu qadar inon-ixtiyerini muhit erkiga butkul berib qo‘ygan bo‘lsa?. Yo‘q, Bobur dengiz to‘lqinlariga tashlab qo‘yilgan kemaning halokati muqarrar ekanligini yaxshi anglardi. Ayni sarguzashtlaridan mutanaffir bo‘lib – nafratlanib yurardi. Tushib qolgani girdobdan xalos bo‘lish yo‘llarini tun-u kun axtarar edi. O‘z holatini istehzo va ma‘yuslik bilan e‘tirof etar, e‘tiroflarini samimiyat bilan “Boburnoma” sahifalarig‘a qayd qilar edi: “Bog‘i Kalonda... tonglasi chog‘ir majlisi bo‘ldi. Oqshomg‘acha ichildi... Shu tariqa oradan uch yil o‘tdi. Saodatmand shoh, armonli shoir Zahiriddin Muhammad Bobur bu kechgan fursat mobaynida ko‘p yaxshi - yomon kunlarni boshidan o‘tkardi, charxning jabr-u jafosini ham, hayot nag‘masi va quvonchlarini ham obdan tortdi. Va nihoyat umr shunday bir manzilga yetib keldiki... “Dushanba kuni, jumodil - avval oyining yigirma uchida sayr qila otlandim. Sayr asnosida xotiring‘a yettikim, hamisha tavba dag‘dag‘asi xotirimda bor edi, bu nomashru’ amr irtikobidin alad-davom kunlumda g‘ubor edi, dedimkim, ey nafs, Chand boshi zi maoyiy mazakash, Tavba ham bemaza nest, bichash...” (Qachongacha bemaza ishlardan zavq olasan, tavba ham bemaza emas, undan ham totib ko‘r). Bu voqea hijriy to‘qqiz yuz o‘ttiz uchinchi yili – milodiy bir ming besh yuz yigirma oltinchi yili sodir bo‘ldi. Boburshoh usha yili Hindistonni zabt etib, porloq, olamshumul zafar quchdi. Xuddi shu yili u yana bir buyuk g‘alabaga erishdi. Bu ulug‘ zafarning nomi –TAVBAdir. Bobur ayni o‘shal fursatda nafs ustidan buyuk g‘alaba qozondi – ichkilik balosini yengdi. Keling, bu mashaqqatli, uqubatli g‘alaba tafsilotlarini ko‘zdan kechiraylik. G‘alaba sharafiga, ma‘lumki, tantanavor qasidalar munosibdir. Shu bois ham Bobur bu haqdagi hikoyasini endi nasr bilan emas, nazmning baland pardalarida davom ettiradi:

“Necha isyon bila oludaliging,
Necha xirmon aro osudaliging.
Necha nafsing‘a bulursan tobi’,

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Necha umrungni qilursen zoyi’.
Niyati g‘azv ila kim yurubsen,
O‘lmakingni o‘zungga kurubsen,
Kimki o‘lmak o‘ziga jazm etar,
Ushbu holatta bilursenki netar.
Dur etar jumla manohiydin o‘zin,
Aritur barcha gunohidin o‘zin,
Xush qilib o‘zni bu kechmakliktin,
Tavba qildim chog‘ir ichmakliktin.
Oltun-u nuqra surhiy-yu ayoq,
Majlis oloti tamomin ul choq,
Hozir aylab borini sindurdum,
Tark etib mayni, ko‘ngul tindurdum...” [Tavba, 107-108]

Darhaqiqat, yozuvchilar Xayriddin Sultonning Bobur shaxsini chuqur o‘rganganligining isboti sifatida uning asarlaridagi Bobur obrazining naqadar haqqoniy va jonli tasvirlanganligidan bilib olishimiz mumkin. Adibning asarlarida Bobur obrazini goh yosh ba naviron podshoh, goh hiyonatlar va sotqinliklarga uchragan jabrdiyda yo‘lboshchi, goh o‘zini qo‘noqdan ayrilgan musichadek his qilgan sargardon, gohida yangi imperiya asoschisi, mahoratli sarkarda, strateg, yana ba’zi o‘rinlarda mehribon ota, istedodli ijodkor, ilm-fan rahnamosi sifatida tasvirlagan. “Saodat sohili” asarida esa Bobur obrazi vatan sog‘inchida yonayotgan, hayotining eng yaxshi kunlari, bolalik yillari o‘tgan dasht-u dalalar, vodiylarni qumsaydigan, umrining so‘nggi damlarini vatanida o‘tkazgisi kelgan, mahzun tuyg‘ular ichidagi inson sifatida tasvirlanadi. Olohning har bandasi goh hud, goh behud tushlar ko‘rur. Tushda kishiga ko‘p biliksiz narsalar ayon bo‘lg‘usidir. Shunday emasmi, mavlono? Ammo mening... ne vaqtlarkim, men muttasil bir tush ko‘rib mazmunini anglamoqdin ojizman. Tunlar ba’zan yakkash bir yo‘sin manzara namoyon bo‘lur, o‘sha Farkatda ko‘rganim – toshqin soy hududsiz bir dengiz kabi ayqirib yetadi. Suv betini yupqa muz bosgan. Qo‘limda aso, muz uzra shitob ila qaygadir yelib boraman. Har qadam qo‘yganimda oyog‘im ostida muz qirs- qirs ushalar, muz har qisirlaganda yuragim qalqib- qalqib ketar... Na dengizning poyoni bor, na yo‘limning, vahm ichra qaro terga botib tentib yuraman. Sahar chog‘i hushim boshimdan uchib, ne vaqt hayronu parishon o‘ltiraman. So‘ng arkoni davlat, munajjimlardan ta’bir surayman “Olampanoh, muborak nazaringiz tushgan ul kanora, inshoolloh, saodat sohili bulur”, deydilar...

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Mag‘ribdan shamol turdi. Gullarning boshi egildi. Quyoshning so‘nggi jilvasi toqi ravoqning gulgun naqshlarini yallig‘lantirdi.

— Saodat sohili! — Bobur yoniq bir xo‘rsinish bilan xitob qildi. — Qayda u? Qay baxtiyor kimsa unga yetibdir?

Hofiz Ko‘ykiy hanuz some’ bulib utirarkan, lablari beixtiyor shivirladi: “Darhaqiqat, qayda u? Bu rub’i maskunda saodat istagan banda har vaqt uning chin diydoriga erishurmikan? Dunyoni zir titragan jahongirki unga yetmagan ekan...» — Kup allomalardan, ulomoi kiromlardan so‘roqladim: “Qayda u?” Ko‘ngil tingudek bir javob topmadim, — deya davom etdi Bobur. — Goh aytdilarki, u chog‘ir dengizining qirg‘og‘ida, goh dedilarki, ma’rifat daryosini kanorasida... Goh esa uqtirdilarki, savob ummonining sarhadlarida...

Hofiz Kuykiy dilidagi gap tiliga qay yo‘sin qalqib chiqqanini bilmay qoldi: Saodat sohili — vatanda, olampanoh...

Bobur birdan yalt etib qaradi. Shohning g‘amgin ko‘zlarida nogoh o‘kinch ko‘lankasi paydo bulganini ko‘rib, Hofiz Kuykiy g‘ayrishiuriy tarzda uning dilidagi bitmas jarohatga tig‘ tortganini payqadi-yu, xijolat chekib, yerga tikildi”. [Saodat sohili, Toshkent, 2005, 108].

Zahiriddin Muhammad Bobur- bu buyuk shaxs qatnashgan barcha asarlar oo‘quvchiga olam-olam hissiyot, estetik zavq bag‘ishlaydi. Xayriddin Sultonovning asarlarida ham ushbu obraz turli kechinmalar tug‘yonidagi qahramon qilib tasvirlangan. Bu chizgilar ilmiy izlanishlar, o‘rganishlar ketidan yozilgan haqqoniy tasvirlardir. Adibning shaxsan o‘zi Bobur hayoti va faoliyatini o‘rganish uchun tashkil qilingan. Bobur nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot ekspeditsiyasi” a’zosi bo‘lgan. Hamda Bobur Mirzo bosib o‘tgan barcha hayot yo‘llarini to‘laqonli o‘rgangan.

Bilamizki, buyuk shoh va shoir Bobur nafaqat o‘zbek adabiyotchilari orasida, balki, butun jahon olimlari orasida ham ulkan o‘rganish obyektiga aylangan. Uning beqiyos ijodi, davlat boshqaruvi hamda harbiy safarlari va boshqa ishlarini o‘rganishga bel bog‘lagan marifatparvarlar juda ko‘p. Jumladan, adibning o‘zi Xayriddin Sultonov, Abdurauf Fitrat, Hamid Sulaymon, G‘ulom Karimov, Sharofiddin To‘laganov, Habibulla Qodiriy, T. Shukurov. Jahon olimlaridan esa, Annette Beveridge, Stanley Lane-Poole, Halil Inalcik, Kemal Eraslan, Ibrahim Kafeso‘g‘lu va boshqalar Bobur shaxsiyati, siyosati, davlat boshqaruvi, ijodi va boshqalar haqida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Xulosa. Darhaqiqat, Bobur butun jahon tan olgan beqiyos shaxsdir. Uning umr yo‘lidagi turli xil sinovlar, kechmishlar bugungi kun o‘quvchisiga o‘rnak bo‘lishga

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

arziydigan. Boburning insoniy sof sifatlari, toza qalbi va zehni kishini hayratga soladi. U buyuk davlat arbobi, shoir va olim bo‘lib, nafaqat o‘z davrining siyosiy-saltanat masalalarida, balki adabiyot va madaniyat sohasida ham katta iz qoldirgan shaxsdir. Uning “Boburnoma” asari o‘zbek tarixiy-adabiy merosining muhim qismini tashkil etadi. Bobur nafaqat Hindistonda saltanatni barpo etgan, balki u yerda ilm-fan va san’atni rivojlantirgan hukmdor sifatida ham e’tirof etiladi.

Bundan tashqari, uning o‘z vataniga mehr qo‘yishi, murakkab hayot yo‘li va samimiy ijodi yuqori bahoga loyiqdir. Shuningdek, uning insoniy fazilatlari, adolatli boshqaruv tizimi va xalq manfaatlariga xizmat qilgan ishlari ham alohida ta’kidlanadi. Boburning hayoti va ijodi zamonlar osha avlodlarga ilhom manbai bo‘lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sultonov Xayriddin. Boburiynoma. -T.: Sharq, 1997.
2. Sultonov Xayriddin. Saodat sohili. -T.: G‘afur G‘ulom, 2005.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. -T.: Yulduzcha, 1989.